

## “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA XALQONA POETIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Jo‘raqulov Sardor O‘ktam o‘g‘li,  
Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti  
[joraqulovsardor33@gmail.com](mailto:joraqulovsardor33@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida qo‘llanilgan xalqona poetik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada badiiy matndagi vaqt, tabiat va ijtimoiy muhitni ifodalovchi obrazli til birliklari lingvokulturologik va lingvopoetik yondashuv asosida o‘rganiladi. Maqolada ushbu birliklar nafaqat til hodisasi, balki milliy tafakkur, xalqona dunyoqarash va realistik badiiy makonni shakllantiruvchi muhim poetik vosita sifatida talqin etiladi.

**Kalit so‘z:** Tog‘ay Murod, badiiy makon, xalqona poetik birliklar, lingvopoetika, lingvokulturologiya, realistik tasvir, metaforik tafakkur, milliy dunyoqarash, vaqt obrazi, tabiat tasviri.

**Abstract.** This article analyzes the linguopoetic properties of folk poetic units used in Togay Murod’s novel “The Fields Left by My Father”. The article studies figurative language units expressing time, nature and social environment in the literary text based on a linguoculturological and linguopoetic approach. The article interprets these units not only as a linguistic phenomenon, but also as an important poetic tool that shapes national thinking, folk worldview and realistic artistic space.

**Keywords:** Togay Murod, artistic space, folk poetic units, linguopoetics, linguoculturology, realistic image, metaphorical thinking, national worldview, image of time, image of nature.

**Аннотация.** В данной статье анализируются лингвопоэтические свойства народных поэтических единиц, используемых в романе Тогая Мурода “Поля, оставленные моим отцом”. В статье изучаются образные языковые единицы, выражающие время, природу и социальную среду в литературном тексте, на основе лингвокультурологического и лингвопоэтического подхода. Эти единицы интерпретируются не только как лингвистический феномен, но и как важный поэтический инструмент, формирующий национальное мышление, народное мировоззрение и реалистическое художественное пространство.

**Ключевые слова:** Тогай Мурод, художественное пространство, народные поэтические единицы, лингвопоэтика, лингвокультурология, реалистический образ, метафорическое мышление, национальное мировоззрение, образ времени, образ природы.

**Kirish:** Lingvokulturologiyada til millatning tarixiy xotirasi va madaniy tafakkurini saqlovchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Xususan, V. Gumboldt tilni “xalq ruhining tashqi ko‘rinishi” sifatida baholar ekan har bir millat borliqni o‘ziga xos tarzda til orqali idrok etishini ta’kidlaydi. Keyingi tadqiqotlarda esa Y. Lotman badiiy matnni madaniy ma’no tashuvchi murakkab semiotik tizim sifatida izohlaydi. Mazkur nazariy qarashlar asosida qaralganda, Tog‘ay Murod nasrida uchraydigan xalqona poetik birliklar nafaqat obrazlilikni kuchaytiruvchi uslubiy vosita, balki milliy dunyoqarash va etnomadaniy tafakkurni ifodalovchi lingvokulturologik qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yozuvchi qo‘llagan vaqt, tabiat va muhit bilan bog‘liq poetik birliklar xalqning borliqni hissiy va obrazli idrok etish tajribasini badiiy matnga ko‘chiradi.

**Adabiyotlar sharhi.** Lingvokulturologiyada til va madaniyat munosabati markaziy nazariy masalalardan biri sifatida qaraladi. Jumladan, Sh. Mahmarayimova “xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi ma’lumotlarning eng qimmatli manbasi

frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar va shu kabilardir” ekanligini ta’kidlab, ularda xalqning tarixiy-madaniy tajribasi hamda “olamning lisoniy manzarasi” mujassamlashganini qayd etadi. Shuningdek, tadqiqotda metafora insonning lisoniy-mental faoliyati bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qilib, uning poetik tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni alohida ko‘rsatib o‘tiladi (Sh.Mahmarayimova tadqiqoti nazarda tutilyapti. S.J). Mazkur nazariy qarashlar asosida yondashilganda, Tog‘ay Murod romanida uchraydigan “Kun yondi”, “Tong to‘rkadi”, “Chilla kuydi” kabi xalqona poetik birliklar oddiy obrazli ifoda emas, balki milliy tafakkur, xalqning tabiat va vaqtni idrok etish tajribasini aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan yozuvchi qo‘llagan poetik birliklar badiiy matnning nafaqat estetik, balki madaniy-semantik qatlamini ham yuzaga chiqaradi. Badiiy matndagi xalqona poetik birliklarni tahlil qilishda lingvopoetika va lingvokulturologiyaning o‘zaro uyg‘unligi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Lingvopoetik yondashuvga ko‘ra, badiiy matnda qo‘llangan har bir til birligi nafaqat nominativ vazifa bajaradi, balki muayyan estetik ta’sir va obrazlilikni yuzaga chiqaradi. Lingvokulturologik qarashlarda esa til birliklari xalqning milliy tafakkuri, turmush tarzi va madaniy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu bois badiiy matnda uchraydigan metaforik birliklarni faqat uslubiy vosita sifatida emas, balki milliy dunyoqarashning lisoniy modeli sifatida qarashni taqazo etadi.

**Tahlil va mulohazalar:** Quyida Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani(keying o‘rinlarda shu asar deb ketiladi. S.J)dagi ayrim poetik birliklarni tahlil qilamiz. Yozuvchi asarlarida uchraydigan poetik birlikning asosiy qismini vaqtni bildiruvchi poetik birliklar tashkil etadi. Jumladan, “salqintob oqshom” birikmasi, bu birikma orqali yozuvchi oqshom tasvirini oddiy vaqt hodisasi emas, balki hissiy estetik holat darajasiga olib chiqadi. Lingvokulturologik jihatdan ushbu birlik xalqning tabiat hodisasini hissiy kechinmalari orqali idrok etishi namoyon bo‘ladi. “Salqintob” so‘zi tarkibidagi salqinlik va yoqimlilik semantikasi mujassamlashib, oqshomning inson ruhiyatiga ta’sirini bildiradi. “Kun ko‘tarildi”[1:56] birligi xalqona vaqt tasvirining o‘ziga xos poetik ko‘rinishi hisoblanib, kunning boshlanishi oddiy astronomik hodisa emas, balki harakat va jonlanishni anglatuvchi obrazli hodisa sifatida tasvirlanadi. “Qosh qoraydi”[2:152] birikmasi xalqona temporal poetikaning yorqin namunalaridan biridir. Ushbu birlikda tunning boshlanishi yoki kunning tugashi to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlanmaydi, balki yozuvchi bu hodisani metoforik obrazli tarzda tasvirlaydi. “Saraton sap-sariq tovlanadi” birligi esa yoz faslining xalqona poetik tafakkurini tasvirlaydi. “Saraton” leksemasi xalq tasavvurida eng issiq va quruq mavsum sifatida qo‘llansa, “sap-sariq” sifat darajasi orqali tabiatning rang poetikasi yanada kuchaytirib, “tovlanadi” fe’li makonni turg‘un holatda emas, balki harakat jarayonida tasvirlaydi. Shu orqali xalqning fasl va tabiat hodisalarini rang hamda hissiyot orqali idrok etishini aks ettiradi. “Kun qiyomdan qiyom bo‘ldi” birligi ham vaqtning poetik modelini yaratishga xizmat qilgan. Ya’ni

“qiyom” leksemasi xalq tilida kunning eng qizigan, tik holatga kelgan pallasini anglatib, vaqtning rasmiy soat o‘lchovi orqali emas, tabiat va inson hissiyoti bilan bog‘liq holda ifodalaydi. Ayniqsa, ushbu birlik dehqon turmush tarzida kunning eng og‘ir mehnat qilinadigan qismi va jazirama bilan birlashadi, bu birlik tabiat va inson munosabatini xalqona metoforik tafakkur asosida ochib beruvchi birlik sanaladi. “Kun yondi” orqali ham yozuvchi Surxon vohasining jazirama makonini kitobxon ongiga aniq tasvirlar orqali yetkazishga harakat qiladi. Bu birlik orqali yozuvchi kunni oddiy issiq hodisasi emas, balki qizigan, azob beruvchi jonli hodisa sifatida gavdalantiradi. Bu birlik orqali yozuvchi xalqning tabiat hodisalarini insoniy sezgi va jismoniy holatlar bilan uyg‘un holda idrok etishini aks ettiradi. “Chilla lovulladi” va “Chilla kuydi” birliklari orqali ham vaqtning xalqona modelini aks ettiradi. Bunda mavsum xalqning tabiat hodisalarini obrazli anglash tajribasini ko‘rsatadi. “Tong to‘rkadi” birligida yozuvchi tong manzarasini jonlantiradi. Tong oddiy vaqt almashinuvi emas, balki harakatdagi tirik poetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. “Kun bo‘k bo‘ldi” bu birlikda ham yozuvchi tabiat va havo holatini poetik tafakkur asosida ifodalaydi. “Bo‘k” leksemasi xalq tilida dim va bosimli muhitni anglatib oddiy meteorologik holatdan ko‘ra kuchli hissiy ma‘noni yuzaga chiqaradi. Shunday qilib, Tog‘ay Murod nasrida qo‘llangan xalqona birliklar yozuvchi individual uslubining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Xulosa** qilib aytganda, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida qo‘llangan xalqona poetik birliklar muhim lingvopoetik qatlamni tashkil etadi. Yuqorida tahlil qilingan birliklar oddiy obrazli tasvir vositasi bo‘lib qolmay, xalqning tabiat, vaqt va borliqni idrok etish tajribasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi qo‘llagan ushbu birliklar dunyoni obrazli idrok etish modeli va milliy estetik qarashlarini ifodalovchi muhim badiiy vositalardan biri ekanligini anglatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vilhelm von Humboldt. Избранные труды по языкознанию. Москва:Прогресс, 1984.
2. Yuri Lotman. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970.
3. Махмераимова Ш.Т. Лингвокультурология. – Тошкент: “Чулпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2017.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978
5. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. Роман. Т.: “Zukko kitobxon”. 2022.